

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

## MUSTAQILLIK YILLARDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI

**Axtamova Xurshida Jamshid qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimi, Surxondaryo viloyati tumanlarida dastlabki sog'liqni saqlash masalalari sog'liqni saqlash tizimidagi vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, ularning samaradorligi, tizimdagi o'zgarishlar holatlari, o'tkazilgan chora tadbirlar, sog'liqni saqlash tizimi ko'lamiga haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'z:** Simens, vrachlar, xususiy tibbiyot, kasalxonalar, punktlar, oilaviy poliklenika, ambulator muassasalar.

O'zbekiston Respublikasida aholi salomatligi va sog'liqni saqlash tizimi mustaqillikning birinchi kunlaridanoq davlat siyosati darajasiga kotarildi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilgan ishlar va bugungi kunda korilayotgan chora-tadbirlar natijasida aholiga tibbiy xizmat korsatishning samaradorligi, sifati va qulayligini oshirish taminlandi, BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining asosiy parametrlariga erishildi.

Mamlakatimizda har yili noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi tibbiyot xodimlarining kasb bayrami kuni sifatida keng nishonlab kelinadi.

Inson uchun avvalambor sog'liq kerak, donishmandlar aytganlaridek, «Inson uchun birinchi baxt uning sog'lig'i, ikkinchisi esa go'zalligi». Viloyatda asosan tibbiyot mutaxassislariga bo'lgan e'tibor mustaqillik-yillarida bir muncha o'sdi. Ularning tajribalari umumlashtirilib, respublika ilmiy uslubiy markazlari bilan aloqasi mustahkamlandi. Dalillarga e'tibor bersak, viloyat sog'liqni saqlash tizimida 1990-yili 3399 nafar oliy ma'lumotli shifokor ishlagan bo'lsa, 1991-yilga kelib bu ko'rsatkich 3549 taga yetdi. Jumladan, Oltinsoy tumanida 1990-yili 157 ta oliy ma'lumotli vrach ishlagan bo'lsa, 1991-yilga kelib ularning soni 170 taga yetdi.

Tibbiyot xodimlarining soni oshib borishi aholiga bo'lgan xizmatni yaxshilash bilan birga yangi davolash bo'limlarining tashkil topishiga, tibbiyot xizmati sifatini oshirishga ham imkoniyat yaratdi. Yuqorida qayd etilgan raqamli ko'rsatkichlar viloyatning qolgan tumanlarida quyidagi holatda joylashgan. 1990-yilda oliy ma'lumotli vrachlar Angorda 128 ta, Boysunda

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

131 ta, Muzrabodda 131 ta, Denovda 357 ta, Jarqo'rg'onda 230 ta, qumqo'rg'onda 208 ta, qiziriqsa 104 ta, Sariosiyoda 331 ta, Sherobodda 146 ta, Sho'rchida 248 ta, Termiz shahrida 885 ta, Denov shaxrida 179 tani tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilga kelib Angorda 128 ta, Boysunda 144 ta, Muzrabodda 110 ta, Denovda 365 ta, Jarqo'rg'onda 221 ta, Qumqo'rg'onda 213 ta, Qiziriqda 105 ta, Sariosiyoda 271 ta, Termizda 152 ta, Uzunda 165 ta, Sherobodda 171 tani tashkil etdi.

Mustaqillik sharofati bilan 1992-yilga kelib tibbiyot sohasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, viloyatdagi ko'pgina kasalxonalar qayta ta'mirdan chiqariddi. Aholiga bo'lgan tibbiy xizmatni yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zaonaviy tibbiyot asbob»uskunalari keltirildi. Bozor iqqisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash borasida tibbiyot xodimlari ham chetda qolmadilar. O'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakalarini oshirish masalalariga katta e'tibor berildi. Bu ishlarni amalga oshirishda Termiz, Sherobod tibbiyot bilim yurtlarining hissasi katta bo'ldi. O'z navbatida Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari malaka oshirish va uslubiy ishlari bilan yordam berib kelmoqda.

1992-yil tibbiyot sohasiga bolgan etiborning kuchayishi natijasida viloyatdagi kopgina kasalxonalar qayta tamirdan chiqarildi. Aholiga bolgan tibbiyot xizmatini yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalari keltirildi. Yaponiya, Fillandiya, Fransiya, AQSh hamda Germaniyadan keltirilgan tibbiyot sohasidagi asbob-uskunalardan foydalanish, bioximik analizatorlar va boshqa zamonaviy apparaturalar shifokorlarga yanada samarali ishlashlari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, Germaniyaning «Simens» firmasidan keltirilgan «Seraskop SX» modeli rengenodiagnostik apparatidan ikki dona olib kelib ornatildi. Eng muhimi viloyat aholisining sogligini saqlash uchun suniy buyrak, gemodializ, suvni filtirlaydigan va odam organizmi uchun mos suyuqlik yetkazib beradigan filtrlash apparatlari bir necha onlab avtoklavlar, kardiomonitor va stomatalogik komplekslar qurib foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan inson salomatligi muxofaza qilish, tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini rivojlantirish hamda aholiga korsatilayotgan tibbiy xizmatda soglom raqobatni rivojlantirish, nodavlat tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

mustaxkamlashga qaratilgan etibor zamirida 2016-yilda 122 ta (840 orinli 25 statsionar va 97 ta ambulator muassasalar) xususiy tibbiyot muassasasi faoliyat yuritgan bolsa 2021-yil 1-yanvar holatiga 266 tani (66 ta statsionar, 200 ta ambulator muassasalar) tashkil etadi. 2021-yilda 34 ta xususiy tibbiyot muassasa tashkil etilib, ularning soni 300 taga yetkaziladi. Ularda 3012 nafar xodimlar faoliyat yuritadi. (Vrachlar 608 nafar, orta tibbiyot xodimlar 1247 nafar, boshqa soha xodimlari 1160 nafar).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12-noyabrdagi 6110 sonli farmoni 1- ilovasiga muvofiq viloyatda 41 ta birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari jumladan, 36ta oilaviy shifokorlik punktlari , oilaviy poliklinika tashkil etilishi rejalashtirilgan bolib shundan 2021-yilda 12ta oilaviy shifokorlik punkti 1-choragida 5 ta va 2-choragida 5ta,3-chorak 2ta oilaviy shifokorlik punkti va 1ta oilaviy poliklinika ochilishi rejalashtirilgan.

Qishloq shifokori dasturi viloyatdagi olis chekka hududlardagi 35 ta mahalalarga xizmat korsatuvchi 9ta tumandagi 18 ta tibbiy muassasalardagi shifokorlar vokant orinlari aniqlanib, u yerda ishlash xohoshini bildirgan shifokorlarni aniqlash boyicha elon berilgan.

Davlatimiz rahbarining 2023 yil 13 mart kuni Surxondaryo viloyatiga tashrifida berilgan topshiriqlarga asosan hududlarda qoshimcha 44 ta oilaviy shifokorlik punktlari tashkil etish uchun 26 mlrd som, viloyat bolalar kop tarmoqli tibbiyot markazida tashkil etiladigan Bolalar kardioxirurgiya bolimi va Ona va bola salomatlik markazini jihozlash uchun 30 mlrd som, investitsiya dasturi doirasida chiqib, 900 dona tarozi bilan taminlandi.

Tanlab olingan Termiz shahar va Oltinsoy tumanklarida 142ta tibbiy brigade faoliyat olib bordi va natijada Oltinsoy tumani 174819 nafar Termiz shahrida 181234 nafar fuqorolar xatlovdan otkazilib, xar bir mahalla kesimida Salomatlik profili yaratildi.

Boshqa tumanlardan otkaziladigan xatlov jarayonida 678 ta tibbiy brigada jalb etilib, ularga 904 nafar shifokor 3127 nafar orta tibbiy xodimlar jalb qilingan bolib hozirgi kunda 1952590 nafar aholi xatlovdan otkazilgan.

Xulosa, tibbiyot sohasi har bir davrning o'ziga xos tomoni hisoblanadi. Shunday davrda O'zbekistonda ham bu soha o'z ishini olib borib rivojlanish darajasida. Surxondaryo viloyatida bu soha boyicha juda ko'p ishlar amalga oshirilib, viloyatda bu sohani rivojlantirish ishlari o'z samarasini berib

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

kelyapti. Tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo'yicha ham keng kolamli ishlar amalga oshirildi.

## **Foydalangan adabiyotlar:**

1. S.Tursunov va boshhalar. Surxondaryo tarixi ko'zgasida. T.2001.
2. S.Tursunov. Surxonaryo viloyat tarixini o'rganish. T., 1997
3. D. Yakubova Surxondaryo tarixi.